





## 2021- yil yanvar-fevral oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyatida jami **604,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **100,3** % ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2322** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **502** taga oshdi.



### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.03.2021
	01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1820</b>	<b>2322</b>	<b>100,0</b>
<b>Namangan sh.</b>	650	745	32,1
<b>tumanlar:</b>			
<b>Mingbuloq</b>	67	87	3,7
<b>Kosonsoy</b>	183	270	11,6
<b>Namangan</b>	109	128	5,5
<b>Norin</b>	87	118	5,1
<b>Pop</b>	58	92	4,0
<b>To'raqo'rg'on</b>	64	92	4,0
<b>Uychi</b>	165	211	9,1
<b>Uchqo'rg'on</b>	96	145	6,2
<b>Chortoq</b>	138	161	6,9
<b>Chust</b>	123	178	7,7
<b>Yangiqo'rg'on</b>	80	95	4,1




**Ma'lumot uchun:** Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (32,1%), Kosonsoy tumani (11,6 %) va Uychi (9,1 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Pop tumani (4,0 %), Mingbuloq tumani (3,7 %), To'raqo'rg'on tumani (4,0 %), Yangiqo'rg'on (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **13,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 85,8 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga ko'rsatkich darajasidan 87,3 % punktga kamayib, **12,7 %** ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namangan shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **81,5 %** i) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-fevral oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **77,9 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oyi ko'rsatkichiga nisbatan **12,4 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **120,6 %** ni tashkil etgan holda **471,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.


### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-fevral
- 2020- yil yanvar-fevral





## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi yoki **119,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **117,2 %** ni tashkil etdi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **25,9** mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **114,6** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **578,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **128,1** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **4,3** % va **95,7** % ni tashkil etdi.

### IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-fevral oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>604,8</b>	<b>25,9</b>	<b>100,0</b>	<b>578,9</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	181,6	2,1	8,1	179,5	31,0
tumanlar:					
Mingbuloq	16,4	1,3	5,0	15,1	2,6
Kosonsoy	43,4	2,3	8,9	41,1	7,1
Namangan	67,8	1,9	7,3	65,9	11,4
Norin	21	1,3	5,0	19,7	3,4
Pop	26,5	8,2	31,7	18,3	3,2
To'raqo'rg'on	50,6	1,5	5,8	49,1	8,5
Uychi	64,3	2,5	9,7	61,8	10,7
Uchqo'rg'on	27,3	1,1	4,2	26,2	4,5
Chortoq	32,7	1,1	4,2	31,6	5,5
Chust	35,5	1,3	5,0	34,2	5,9
Yangiqo'rg'on	37,7	1,3	5,0	36,4	6,3

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda






## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>604,8</b>	<b>100,3</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	181,6	88,6	30,0
tumanlar:			
Mingbuloq	16,4	110,0	2,7
Kosonsoy	43,4	97,3	7,2
Namangan	67,8	104,9	11,2
Norin	21,0	108,2	3,5
Pop	26,5	109,0	4,4
To'raqo'rg'on	50,6	105,2	8,4
Uychi	64,3	110,3	10,6
Uchqo'rg'on	27,2	113,0	4,5
Chortoq	32,7	111,2	5,4
Chust	35,5	106,4	5,9
Yangiqo'rg'on	37,7	107,5	6,2

2021- yil yanvar-fevral oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (181,6 mlrd. so'm) Namangan t (67,8 mlrd. so'm) , Uychi (64,3 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (50,6) Kosonsoy (43,4 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (37,7 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi